

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA'SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To'xtasinov Mira'zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO'SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o'g'li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUIJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og'abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yuldashev Rustam Daniyrovich

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 87-93

Adilov Zafar Yunusovich

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L 94-98

Berdikulova Surayyo Aslamovna

IJTIMOIIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI 99-104

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich

ZAMONAVIIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI 105-113

Yarbaev Xasan Xazratqulovich

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:
MILLIIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL 114-118

Maxsudjonov Kamronjon

MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIIY MADANIYATIGA
TA'SIRINING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI 119-123

Qo'chqarov Oybek G'ulomovich

INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:
IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDASHUV 124-128

Otaqulov Elyor Madiyrovich

EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI 129-136

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR 137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Niyazov Ravshan Turakulovich

SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR
XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI 142-148

Yunusova Xilola Ravshan qizi

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI
"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA 149-154

Absalamova Gulmira Sharifovna

LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIIY TERMINLARNING
NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA 155-158

Dadajanova Aziza Karimullayevna

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE 159-170

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI
RAMZIIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)
ERTAGI MISOLIDA 171-175

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafruz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahriddin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i> INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT"	337-341

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

PROCEDURE FOR CONSIDERATION OF LAND DISPUTES IN COURTS

Guzal Sharipovna,

Professor of the Environmental Law Department
of Tashkent State University of Law,
Doctor in Law
E-mail: guzalsharipovna@gmail.com

Abstract. The article first defines the concept of "land disputes". Then, the specific features of the consideration and resolution of land disputes in courts are given, as well as the application of substantive and procedural law norms. The author lists the main legislative acts that must be studied by courts when considering and resolving land disputes. The article studies the activities of environmental courts in countries such as Germany, England, France, and the USA.

Keywords: land disputes, environmental courts, land law, procedure, convention.

YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI

Uzakova Go'zal Sharipovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrasi professori,
yuridik fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada dastlab "yer nizolari" tushunchasiga ta'rif berilgan. So'ngra yer nizolarini sudlarda ko'rib hal qilishning o'ziga xos xususiyatlari, bunda moddiy va protsessual huquq normalarining qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan. Muallif yerga oid nizolarni ko'rib hal qilishda sudlar tomonidan o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy qonun hujjatlarini keltirgan. Maqolada Germaniya, Angliya, Fransiya, AQSH kabi davlatlarda ekologik sudlarning faoliyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: yer nizolari, ekologik sudlar, yer qonunchiligi, protsessual tartib, konvensiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N32>

Mamlakatimizda yer bilan bog'liq islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ulardan ko'zlangan asosiy maqsad – yerlardan samarali foydalanishni tashil etish va fuqarolarning turmush farovonligini oshirishdan iboratdir. So'nggi yillarda ayniqsa, yer uchastkalari bilan bog'liq ma'lumotlarni raqamlashtirish, yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali sotish, yerlarni xususiyashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ikkilamchi ijaraga berish, yerdan foydalanish bilan bog'liq zararni qoplashning yangi tizimi joriy etilganligi kabilarni yer qonunchiligidagi muhim yangiliklar sifatida baholash mumkin. Shuningdek, yer egasi, foydalanuvchi, ijarachi va mulkdori huquqlarining kafolatlari qonun hujjatlarida belgilangan bo'lib, ularni ta'minlashda sud organlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer nizolari deganda, odatda yerga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan nizoli holatlar nazarda tutiladi, bunda yer huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining mulkiy huquq va manfaatlari himoya qilinadi.

Ta'kidlash joizki, yer huquqiga oid maxsus ilmiy adabiyotlarda yer nizolariga manfaatdor tomonlar o'rtasidagi u yoki bu yer uchastkasining o'zlariga tegishliligi va o'zlarining yerga oid huquqlari, qonuniy manfaatlarini amalga oshirish hamda ularga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan kelishmovchilik sifatida ta'rif beriladi. [1] Yer nizolarini yer qonunchiligini buzish natijasida kelib chiqadigan kelishmovchilik sifatida ham tushunish mumkin.[2]

Yer nizolarini sudlar tomonidan ko'rib hal qilishda moddiy huquq tarmoqlari bilan bir qatorda protsessual huquq sohalari ham qo'llaniladi. Shu sababli yer nizolarini barcha yer munosabatlari ishtirokchilarining o'rnatilgan protsessual-tartiblar va qonun oldida tengligiga rioya qilgan holda yerga nisbatan o'z huquqlarini muhokama qilish va isbotlashi sifatida ham tavsiflash mumkin. Yer huquqiga oid nazariy manbalarda yer nizolarining moddiy-huquqiy shakli uning protsessual shaklidan ajratib ko'rsatilgan. [3]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan ma'muriy-hududiy tuzilishga tegishli yer uchastkasi haqidagi kelishmovchiliklarni yer nizosi deb hisoblab bo'lmaydi. Negaki, chegara bilan bog'liq hududga doir munosabatlar davlat huquqining obyekti hisoblanib, hududni boshqarishga oid vakolatlar esa ma'muriy huquq orqali tartibga soladigan huquqiy munosabatlardir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi sud amaliyotida yer nizolari da'vo arizasi kiritish yo'li bilan fuqarolik huquqiy tartibida ko'rib chiqiladi, vakolatli organlarning yer ajratish va yer uchastkalarini olib qo'yish jarayoni bilan bog'liq ishlar esa ma'muriy huquqiy tartibda ko'rib chiqiladi. Bunday ishlar O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun, "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi qonuni, "Davlat yer kadastri to'g'risida"gi qonuni, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni, "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonun, "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun, Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 71-son qarori (14.02.2022-yil), Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 709-son qarori (24.11.2021-yil) asosida ko'rib hal qilinadi.

Ta'kidlash joizki, yerga oid nizolar yer-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladi. Yerga oid huquqiy munosabatlar deganda, yer resurslarini boshqarish, uni muhofaza qilish, yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalari ajratish, yer uchastkalariga egalik qilish va undan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan huquqiy va boshqa ashyoviy munosabatlar tushuniladi.[4] Yer nizolari ikki yoki undan ortiq tarafning aynan bir yer uchastkasiga nisbatan da'vosi bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Yer nizolari nafaqat yer egasi, foydalanuvchi va ijarachilari o'rtasida vujudga keladi. Balki, yer nizolari yuqoridagi shaxslar hamda davlat organlari o'rtasida ham yuzaga kelishi

hollari ham ko'p kuzatiladi. Ushbu nizolar ko'pincha davlat organlarining yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi qarori (subyektning yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi qarordan, yerni olib qo'yish muddatlari va miqdoridan, kompensatsiya shartlari va hajmidan noroziligi) asosida kelib chiqadi.

Qonunchilikda belgilangan yer nizolarini ko'rib chiqish tartibi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish chegaralari to'g'risidagi masalani yerga nisbatan huquqlarni belgilashdan ajratib ko'rib chiqib bo'lmaydi; shuningdek, yer uchastkasiga va unda joylashgan ko'chmas mulkka nisbatan huquqni belgilash bilan bog'liq nizolarni ham alohida ajratib bo'lmaydi. Nafaqat yer va undagi o'simliklar, balki ushbu yer uchastkasida joylashgan inshoot va qurilmalarga ham taalluqli bo'lgan nizolarda negator da'vo yer bilan bog'liq xususiyat kasb etadi. Shu bois ham bunda maxsus protsessual qoidalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, har qanday yer nizolari bilan bog'liq holatda ham tegishli subyektlar huquqlarining sud tartibida himoya qilinishi ta'minlanadi. Yer uchastkasi egasi va foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish darajasi bir xil bo'lib, bu fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi konstitutsiyaviy prinsipidan kelib chiqadi. Ayni damda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning yerga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydi.

Yer nizolarini sud tartibida hal qilish tendensiyasining kengayishi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda 17-sonli "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi, 2018-yil 30-noyabrda 34-sonli "Yer kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi, 2023-yil 20-noyabrda 28-sonli "Sudlarda yerga oid nizolarni ko'rishda qonunchilik hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorlarining qabul qilinishiga olib keldi.

Ta'kidlash lozimki, yer nizolarining murakkabligi, ushbu nizolar sonining o'sishi tendensiyasi kuzatilayotganligi, yer nizolarining ko'p hollarda davlat ijro hokimiyati idoralari qarorlari bilan bog'liqligi va yerning tabiiy va xo'jalik-ishlab chiqarish obyekti sifatidagi ahamiyati ushbu nizolarni ko'rib chiqishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishni taqozo etadi.

Fuqarolarning toza va sog'lom atrof muhitga bo'lgan huquqi dunyo davlatlari konstitutsiyasining uchdan bir qismida kafolatlab qo'yilgan bo'lib, hozirda ushbu huquqlarni samarali ta'minlash maqsadida 50 dan ortiq mamlakatlarda 350 dan ortiq ixtisoslashgan ekologik sud va tribunallar tashkil etilgan. Jumladan, Braziliyada alohida ekologik sudlar, Buyuk Britaniyada yer masalalari bo'yicha maxsus sudlar, Germaniyada qishloq xo'jalik yerlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan sudlar, XXRda o'rmon xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va yerlar bo'yicha sudlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Angliyada XII asrdayoq "assisa" sudlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, unda nizoli yer masalalari bo'yicha guvoh sifatida sudga yer uchastkasiga da'vogarlik qilayotgan shaxslarning 12 tadan qo'shnisi taklif qilingan va ish ular ishtirokida hal qilingan.[5] Hozirda Buyuk Britaniyada yer uchastkasini majburiy olib qo'yish, majburiy olingan yer uchastkasi uchun kompensatsiya to'lash masalalarini hamda hukumat va boshqa organlarining yer uchastkasi bilan bog'liq qarorlari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiquvchi yer tribunallari tashkil etilgan.

AQSHda yerga nisbatan mulk huquqini belgilash bilan bog'liq nizolar qoida tariqasida umumiy sudlarda ko'rib chiqiladi. Ijarachilarning yer mulkdorlari bilan bog'liq nizolari qisman

umumiy sudlar, qisman esa, fermer xo'jaliklari yoki mahalliy hokimiyat organlari huzurida tashkil etiladigan maxsus vositachilar sudlarida ko'rib chiqiladi. Yer nizolarining ma'lum qismi Tuproqni muhofaza qilish va yer melioratsiyasi okrug qo'mitalari tomonidan ko'rib chiqiladi.[6]

Germaniyada qishloq xo'jalik sudlari muayyan toifa ishlarni ko'rib chiqishda sudya va ikkita qishloq xo'jaligi sohasi mutaxassislari bo'lgan sud a'zolaridan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi. Fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sud qishloq xo'jalik ishlari bo'yicha ikkinchi instansiya sifatida qatnashayotganida uchta sudya va ikkita sud a'zosidan iborat tarkibda ishlarni ko'rib chiqadi.

Fransiyada yer tuzish bilan bog'liq nizolar yer tuzish bo'yicha komissiyalarda, ijara munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar esa, yer paritet tribunallarida ko'rib chiqiladi. Xususan, Fransiyada umumiy sudlar tizimida ixtisoslashtirilgan yer ijarasi bo'yicha paritet tribunali faoliyat ko'rsatadi. Ushbu tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki, sudyalar sifatida huquqshunoslar emas, balki muayyan faoliyat sohasining mutaxassislari jalb qilingan. Mazkur tribunal 1958-yilda tuzilgan bo'lib, qishloq xo'jalik yerlari ijarasiga oid ishlarni ko'rib chiqadi. Tribunal tarkibiga besh yillik muddatga asessorlar saylanadi (2 ta asessor ijarachi va 2 ta ijaraga beruvchilardan). Asessor sifatida saylanish uchun shaxs kamida 5-yil ijarachi yoki ijaraga beruvchi maqomida bo'lishi talab qilinadi. Tribunal da'vo qiymati 13 ming frankdan oshmaydigan ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqadi. Uning qarori ustidan shikoyat qilib bo'lmaydi. Basharti, da'vo qiymati 13 ming frankdan oshadigan bo'lsa, shikoyat apellyatsiya sudining ijtimoiy palatasiga berilishi mumkin. [7]

Bu haqda Fransiya Konstitutsiyasining 6-bobi, 214-moddasida mustahkamlanishicha, "Tijorat, yer va dengiz ishlari bo'yicha maxsus tribunallar tuziladi; ular joylashishi lozim bo'lgan joy qonun bilan belgilanadi. Ular besh yuz miriagramm (bir yuz ikki sentner va yigirma ikki funt) bug'doydan oshmaydigan miqdordagi ishlar bo'yicha yakuniy qarorlar qabul qilishga vakolatlidir". [8]

Shotlandiyada yer tribunali fuqarolik sudlari tizimida tashkil etilgan bo'lib, ularning yurisdiksiyasiga yer bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish kiritilgan.[9] Tribunal 1949-yilda "Yer tribunali to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan tashkil etilgan. Ushbu Qonun bilan Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada ham alohida yer tribunallari tashkil etilgan.[10]

Shotlandiya yer tribunali faoliyatining asosiy yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat: yer bitimlari shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilish; fuqarolarning yerga bo'lgan huquqlarini muhofaza qilish; yer uchastkasi majburiy olib qo'yilishi yoki jamoatchilik ishi tufayli yer uchastkasi qiymatining yo'qotilishi munosabati bilan kompensatsiya to'lash bilan bog'liq nizolar; nomaishiy binolar reytingini baholash; Shotlandiya ro'yxatlarni saqlovchisi xatti-harakatlari ustidan shikoyatlar; yerning bahosi to'g'risidagi arizalar; Tribunal hakam sifatida qatnashadigan boshqa ixtiyoriy ishlar.

Shotlandiya yer tribunali tarkibi 1949-yildagi "Yer tribunali to'g'risida"gi Qonunga binoan rais va uchta a'zodan iborat. Sudda shuningdek, advokat yoki yerni baholash bo'yicha malakali xodimlar Malakali baholovchilar qirollik institutining shotlandiyalik raisi bilan maslahatlashuvlardan so'ng Tribunal raisi tomonidan tayinlanadi.[11]

Bunda yer sudlari tarkibini shakllantirishning alohida tartibini ko'zda tutish maqsadga muvofiq. Ya'ni, bunda professional sudyalar bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat vakili (yer masalalari bo'yicha mutaxassis) va kadastr qo'mitasi vakili (yer bitimlarini ro'yxatga olish

bo'yicha mutaxassis)ni biriktirish yoki ularni ekspert sifatida majburiy jalb etish tartibini ko'zda tutish ham foydadan xoli bo'lmaydi.[12] Yer sudlarining vazifasi nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki jabrlanuvchi tomonga yetkazilgan zararni to'la hajmda qoplash ham bo'lishi darkor.

Yer nizolari sudining tashkil etilishi BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tomonidan 1998-yil 25-iyunda Orxussda (Daniya) qabul qilingan "Atrof muhitga taalluqli masalalar bo'yicha axborot olish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovdan foydalanish to'g'risida"gi Konvensiyasi talablariga ham mutanosib bo'ladi. Xususan, uning 21-rahbariy prinsipi davlat atrof muhitga taalluqli ishlar bo'yicha huquqni muhofaza qilishning zamonaviy, munosib va samarali usullarini, shu jumladan, vaqtinchalik va doimiy sud taqiqlarini taqdim etish uchun huquqiy tartibga solish tizimini belgilashi lozimligini mustahkamlaydi. Davlat kompensatsiya va restitutsiyadan foydalanish masalalarini hisobga olish lozim.[13]

Ayni damda ekologik yoki yer nizolari bo'yicha sudlarni tashkil etishda quyidagi 12 ta muhim masalalar bo'yicha qaror qabul qilish lozim bo'ladi: sud turi; yurisdiksiyasi, darajasi, hududiy faoliyati; ish hajmi; protsessual huquq layoqati; xarajatlar; ilmiy va texnik ekspertizadan foydalanish imkoniyati; nizolarni hal qilishning muqobil yo'llari; sudyaning vakolati; ishlarni boshqarish; qarorni ijro etish va huquqiy muhofaza qilish usullari. [14]

Xulosa qilib aytganda, yer bilan bog'liq nizolarning sud tartibida ko'rib hal qilinishi fuqarolarning yerdan foydalanish sohasidagi huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, bu boradagi qonunchilikning takomillashuvi yer nizolarini mazmunan ko'rib chiqish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Земельное право. Учебник. – М.: Проспект, - 2006. - С. 210-211.
2. Жуманов А.А. Ер низоларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш муаммолари. юрид. Фанлари номзоди дисс. – Т.: 2008, 15-бет.
3. Иконицкая И.А. Проблема эффективности в земельном праве. – М.: Наука, 1979. – 183 с.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги 3-сонли "Ер кодексини татбиқ қилишда суд амалиётида вужудга келадиган айрим масалалар тўғрисида"ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Ахборотномаси 2006 й., 1-сон.
5. Гражданское судопроизводство Англии. – М., 2008.; Интернет сайты: <http://ru.wikipedia.org/wiki/Ассизы>
6. Природа и пределы гражданских свобод в США // Права человека накануне XXI века. – М., 1994. – С. 286.
7. Арбитражный процесс (Под ред. В.В. Яркова). 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Инфотропик Медиа, 2010. – 880 с.
8. Документы истории Великой французской революции. Т.1. Отв.ред. А.В.Адо. – М.: Издательство Московского университета, 1990.
9. "Home". The Lands Tribunal for Scotland. Retrieved 23 December 2009.
10. "Lands Tribunal Act 1949". Retrieved 23 December 2009.
11. Шотландия ер трибуналининг расмий веб-сайти // www.lands-tribunal-scotland.org.uk/about.html
12. Дикусар В. Земельные суды - в России? // Российская юстиция. – Москва, 2000. – №11.

13. Конвенциянинг расмий сайти: www.unece.org/fileadmin/DAM/env/pp/documents/cep43r.pdf
14. Презентация Субрегиональной встречи по вопросам Орхусской Конвенции. – Алматы, Казахстан, 22 мая 2022 // www.unep.org/DELC/worldcongress

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).